

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH**

*Dehqonova Xilola*

*FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlanirish metodlari haqida qisqacha fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, o`quv jarayoni, murakkab fikr, fikrlash jarayoni.

Hozirgi kunda yurtimiz rivojlanishining asosi qilib sharqona ta'lim-tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizdagi o'quvchilarimizga buyuk mutafakkirlarning Xorazmiy, Beruniy, Alisher Navoiylar ta'kidlaganlaridek, mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatishva ushbu tanqidiy fikrlash jarayonida olingan bilimlar tayyor holda olingan bilimlarga qaraganda afzalroq ekanligini tushuntirish bugungi kundagi glaballahuv davrida muhum ahamiyat kab etadi. Shu o'rinda Prizidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini esga olsak: „Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” O'sib kelayotgan yosh avlodlarimizni davlatimiz rahbari aytganlaridek shaxsiy javobgarlik va tanqidiy fikrlash ruxida tarbiyalaydigan bo'lsak o'ylaymanki bu yoshlar kelgusida vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan, fidokor, jonkuyar kadrlar bo'lib yetishadilar. Tanqidiy fikrlashni rivojlanirish oson ish emas, albatta. Buning uchun o'qituvchilardan ko'p narsa talab qilinadi. Chunki tanqidiy fikrlash bu ma'lum yosh davrigagina xos, tugaydigan va esdan chiqariladigan jarayon emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq yo'l ham yo'q va bunga har bitta tanqidiy fikrlovlovchi o'zining dunyoqarashidan kelib

chiqqan xolda o'zlashtirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi. Tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlash demakdir. Axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Ba'zan «bo'sh kalla bilan fikrlash qiyin», deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo» - dalillar, g'oyalilar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur. Har qanday yoshda ham tanqidiy fikrlash mumkin: faqat talabadagina emas, balki hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatları o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, qiziquvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa kuchli bo'ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni talabaning muammoni hal qilishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo'lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi. Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuuning aytishicha, agar talabalar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. «O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir». «Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi». Maktab yoshidagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun dastavval ularda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak:

- ✓ tanqidiy fikrlash tajribasini egallashlari uchun vaqt va imkoniyat yaratishlari;
  - turli-tuman g'oya va firkalarni qabul qilishlari;
  - o'quvchi—yoshlarni o'quv jarayonidagi faolliklarini ta'minlashlari;
  - o'quvchi—yoshlarni kulguga qolmasliklariga ishontirish;
- ✓ har bir o'quvchi—yoshlarning tanqidiy fikr yurita olishliklariga qodir ekanliklariga ishontish;
- ✓ tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashlari lozim;
- ✓ o'quvchi—yoshlarning ko'z ongida „yakkayu yagona to'g'ri javobni qabul qiladigan mentalitet yo'q ekanligini isbotlab berish va o'quvchi—yoshlarda avvalo fikrlash, vaqt, izn , qadrlash, o'zaro fikr almashinuv, tavakkalchilik,rang-baranglik, faollik, kabi xislatlarni rivojlantirish va shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun o'qituvchi pedagoglar ota-onalar bilan doimiy ravishda aloqani uzmasliklari ham juda muhim chunki o'quvchilar mактабдан ташқари ваqtларини uyda ota-onasi bag'rida o'tkazishadi. Bu vaqt mobaynida ularda turli-tuman savollar berishadi . Ba'zi hollarda ko'p savollar berishi ota onalarga yoqmasligi mumkin.Lekin har doim bolalarga to'g'ri narsani o'rgatish va savollariga aniq javob berishlari tanqidiy fikrlashning boshlanishi hisoblanadi. Sababi shundaki bola unga notanish bo'lgan narsalar haqida so'raydi agar biz ularga bergen javoblarimiz qoniqtirmasa ular savol berishmay qo'yishadi. Bu holat esa bolalarda tanqidiy fikrlashlariga chegara qo'yishni boshlaydi. Chunki qiziqib savol bermaydigan boladan tanqidiy fikrlashni kutmasa ham bo'laveradi. Aslini olganda ota-onalar ham o'quvchi-yoshlardan ham o'qituvchi pedagoglar ham ko'p kitob o'qishi, dunyoqarashini kengaytirishlari lozim. Chunki ko'p kitoblar o'qish har bir berilgan savollarga atroflicha, to'liq, aniq, fikrini qo'rmasdan berishlari uchun shubhasiz fundament bo'lishi kerak .

## **Adabiyotlar:**

1. Muhammadkadirovna, G. D., Abdulhamitovna, S. H., & Qizi, R. D. T. (2022). The Role of Innovative Training Methods in Individualization Training. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 272-279.
2. Qizi, R. D. T., & Qizi, M. F. M. (2021). Developing the critical thinking of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 769-772.
3. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
4. Rustamova, D. (2023). The importance of a cognitive approach to learning synonyms in primary grades. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(3), 32-36.
5. Nizrova, M., & Rustamova, D. (2020). Ona tili darslarida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi interaktiv va noan’anaviy metodlari. *Молодой ученый*, (4), 480-481.
6. Rustamova, D. T. K., & Mamajonova, F. M. K. (2022). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 750-756.
7. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.
8. Raxmonov , E. K. o‘g‘li, Qobilov , F. S. o‘g‘li, & Berdimuradov , X. T. o‘g‘li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG‘DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
9. Qobilov, F. S. o‘g‘li, & Raxmonov, E. K. o‘g‘li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO‘SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>
10. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o‘g‘li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO‘LLANILADIGAN QO‘SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>

11. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.
12. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.
13. Akhmedjanova, F. D. (2022). THE INFLUENCE OF LEARNING STYLES ON LANGUAGE TEACHING AT SECONDARY SCHOOL. Academic research in educational sciences, 3(3), 5-9.
14. Djavairovna, A. F. (2022). The Impact of Learning Styles in Teaching English.
15. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
16. Akhmedjanova, Farida Djavairovna. "The role and influence of feedback at foreign language learning achievement." Science and Education 2.Special Issue 2 (2021): 89-93.
17. Yuldashev, О. (2021). ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРУВЧИ АГРЕГАТ ШАРНИРЛИ БОГЛANIШЛИ ҚОЗИҚЧАЛАРИ БЎЛГАН БАРАБАНИНИНГ КОНСТРУКТИВ ЎЛЧАМЛАРИНИ АСОСЛАШ. *Agro protsessing*.